

“BASTAKORLIK IJODINI O’RGANISH MASALALARI”

Jaxongirova Mubiyna

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

musiqa san’ati ta’lim yo‘nalishi 1-kurs magistri

Ilmiy rahbar: Berdixanova Shaxida Nurilbayevna

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa

san’ati instituti “O‘zbek maqom tarixi

va nazariyasi” kafedrasi

san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: *O‘zbek mumtoz musiqa madaniyati serqirra, tarixan boy an’analarga ega. Maqomlar, mumtoz ashula, cholg‘u kuylari, folklor, dostonlar va boshqa janrlar o‘zbek musiqa madaniyatining mahobatini o‘zida mujjassam etgan. Jumladan o‘tmish hamda bugungi kun musiqa olamini o‘zida jamlagan, bastakorlik ijodi doimo alohida tilga olinib, o‘rganilishi muhim mavzulardan biri bo‘lib kelmoqda.*

Ushbu maqolada bastakorlik ijodini o‘rganilish tarixi, datslabki hamda xx – asrda yaratilgan manbalar, ma’lumotlar xususida muxtasar bayon etilgan.

Kalit so‘z: *manbashunoslik, bastakorlik, kompozitorlik, folklor, maqomlar, an’ana, ashula, kuy, mavzu, musiqashunos.*

O‘zbek mumtoz musiqa san’ati tarixan uzzoq o‘tmish an’alarini o‘zida mujjassamlashtirgan. Mumtoz musiqa san’atini asrlar davomida sayqallanib rivoj topib bizga yetib kelishida kasbiy musiqa vakillari bo‘lmish bastakor, xonanda va sozandalarning o‘rni beqiyosdir. Bastakorlik ijodi xususida musiqashunos olim T.G’ofurbekov quyidagicha yozadi “Milliy bastakorlik san’ati – yillar va asrlargina emas balki ming yilliklar davomida barcha sinovlarga bardosh berib, usluban

sanog'i yo'q musiqiy bitiklar tevaragida o'z an'alarini yo'qotmay kelmoqda"¹. Darhaqiqat o'zligicha bizgacha yetib kelgan bastakorlik ijodi bugungi kunda ham mumtoz musiqa madaniyatini boyishiga katta hissa qo'shmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki o'rganilishi muhim mavzu sanalgan bastakorlari ijodi tarixi xususida biz faqatgina qimmatli o'tmish manbalari orqali ma'lumotga ega bo'lamiz.

Manbalarga tayanib ayta olamizki, bastakorlik ijodini o'rganish jarayoni ikkiga bo'linib, birinchi davrda olimlar, shoirlar tomonidan bitilgan bastakorlik san'ati xususida qisman yoki muxtasar yozilgan tarixiy manbalar masalan kitob, risola, tazkiralar tashkil qilsa ikkinchi davrda xx-asr va zamonamizda musiqashunos, san'atshunos kabi musiqiy ilim egalari yozgan monografiyalar, kitoblar, dissertatsiyalar kabi ko'plab ilmiy ishlar tashkil etadi.

Ilk bastakorlik ijodi o'xususida musiqashunos S.Begmatov quyidagicha bayon qiladi. "Markaziy Osiyo hududida VI asrning ikkinchi yarmi va VII asring boshlarida yashagan afsonaviy sozanda, xonanda va bastakor Borbad Marvaziyning ijodiy jrochilik merosi kasbiy musiga ijodiyotining ilk qadamlari deb e'tirof etiladi."² Bizgacha nomi yetib kelgan o'tmish bastakori bu Borbad Marvaziydir. Borbad xususida Abdulqisun Firdavsiyning "Shohnoma", Nizomiy Ganjaviyning "Xusrav va Shirin" dostonlarida xushovoz xonanda, sozanda, bastakor ekani ta'kidlangan.

Yana bir tarixiy manba Abdul Faraj al-Isfaxoniyning "Qo'shiqlar kitobi"dir.³ Ushbu asarni Isfaxoniy ustozi bastakor Is'hoq Mavsuliy kitobiga asoslanib yozadi⁴. Asar 8 bobdan iborat bo'lib asosan arab xalqi qo'shiqlari haqida ma'lumot berilgan. Keyingi davrlarda yaratilgan kitoblarda musiqiy nazariy asoslar yoritilgan xususan IX-XVII asrlarda yashab ijod etgan Al-Kindiy, Abu Abdulloh Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Safiuddin Urmaviy shular jumlasidandir.

O'rta asr bastakorligi Temuriylar davri bilan bog'liq bo'lib, bu haqida

¹ G'ofurbekov T.B. Bastakorlik ijodiyoti tarixidan. // Saylanma T., 2009, 9-bet.

² Begmatov S. Bastakorlar ijodi. – Toshkent : Niso Poligraf, 2017.10-bet

³ Abul Faraj al-Isfaxoniy Eronning janubida joylashgan Isfahon shahrida 897-yili tavallud topgan.

⁴ Begmatov S. Bastakorlar ijodi. – Toshkent : Niso Poligraf, 2017.12-bet

bizgacha bir qancha manbalar yetib kelgan. Bastakor va sozandalar haqida olimlar asosan risola ko'rinishida bitiklar yozishgan. Bular ichida Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asari, "Holoti Pahlavon Muhammad" risolalari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu risola 8 ta majlisdan iborat. Asarda jami 16 nafar musiqa sohasi vakillari xususida ma'lumotlar keltirilgan. Ulardan 3nafari bastakorligi ta'kidlanadi. Bular: Mavlono Sohib Baxliy, Hoja Yusuf Burhon, Mavlono Solimiy.

Navoiyning "Holoti Pahlavon Muhammad asari" ustози Muhammadga bag'ishlangan bo'lib uning hayoti davomida qilgan ishlari ilmiy salohiyati yoritiladi va advor⁵ ilmi bilan shug'ullanganini bayon qilgan.

Darvish ali Changiyning "Musiqqa haqidaa risola" asarida ham bastakorlar xususida ma'lumotlar berilgan. Bular sulton Muhammad Udiy, Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy, Mavlono Binoiy, G'ulom Ali Shunqor, Ustod Zaytun G'ijjakiy, Xon Ahmad G'iloniy, Mavlono Ahiy Xitoriy, Mir Ali Akbar Samarqandiy, Amir Mastiy Qobuziy, Ustoz Shodiy, Ustod Xon Quli G'ijjakiy, Ho'ja Yusuf Andijoniy, Ustod Ali Hasob, Alijon G'ijakkiy, Mavlono Najmiddin Kavkabiy Buhoriy, Mavlono Kavkabiy, Xofiz Turdi Qonuniy, Mavlono Qosimiy Qonuniy, Ustod Sulton Muhammad Tanburiy, Mavlono Boqiy Jarroh bastakorlik ijodi bilan shug'ullangani ta'kidlanadi.

Boburning "Boburnoma" asarida ham bir qancha musiqa san'ati vakillari haqida ma'lumot berilgan. Bobur bastakorlarni musannif deya ta'kidlagan. ya'ni Musannif bastakor, ish bog'lovchi, kuy yaratuvchi ma'nolarini anglatadi⁶. Musannif deya o'z zamoning Ustod Shodiy, G'ulom Shodiy, Yusuf Xojakimni va bir qancha bastakorlarni tilga oladi.

XX- asrga kelib o'zbekiston musiqa madaniyati tez rivojlandi, kompozitorlik ijodi kirib keldi, musiqiy savodxonlik oshdi, zamonaviy musiqa shakllari, janrlari (opera, balet, simfonik musiqa) yaratila boshladi. Bir vaqtning o'zida mumtoz musiqa merosi ham ilmiy-nazariy o'rganish ishlari jadal sur'atda musiqashunoslar tomonidan olib borildi. XX-asrga kelib bastakorlik ijodi chuqur

⁵ O'tmishda bastakor so'zini bir qancha sinonimlari ishlatilgan advor ham kuy bog'lovchi sifatida kelgan.

⁶ Nigmatov R. Boburnoma asaridagi musiqiy ijod ahli xususida // Mumtoz adabiyot va mumtoz musiqa masalalari.T., 2022y 18 b.

o'rganila boshladi va ularning asarlari tahlil etildi. Mumtoz musiqa san'ati va bastakorlik ijodiyotini ilmiy o'rganish ishlari Is'hoq Rajabovning maqomlarga bag'ishlangan maqolalari, kitob va monografiyalarida muxtasar yoritilgan bo'lsa, keyinchalik musiqashunoslardan Ahmadjon Jabborov, To'xtasin G'ofurbekov, Ravshan Yunusov, Oqilhon Ibrohimov, Rustam Abdullayevlar bu mavzuga murojaat etishdi.

Bastakorlik va kompazitorlik ijodi bilan chuqur shug'ullangan musiqashunos olim To'xtasin G'ofurbekov bugungi kunga qadar maqom va bastakorlik ijodi, bastakorlar ijodi tarixi, o'rta asr bastakorlik ijodi kabi mavzularni "Folklorne istoki uzbekskogo professionalnogo muzikalnogo tvorchestva" (T.: 1984) va "Tvorcheskie resurs natsionalnoy monodii i ix prelomlenie v uzbekskoy sovetskoy muzike»(T.:1987), "Saylanma 70" (T.: 2009), "Bastakorlik ijodiyoti tarixi, tahlili, taqdiri".(T.:2019) monografiyalari va ilmiy maqolalarida atroflicha o'rganilgan. Xususan musiqashunos o'zining "Saylanma 70" kitobida "„bastakorlik san'ati shunchaki purma'no, biroq hozirgi davrga qadar deyarli o'rganilmaganligi tufayli, uning barcha tamoyillarini birgina risolada atroflicha yoritib berish muammodir, albatta" ⁷.deb ta'kidlaydi.

Musiqashunoslar tomonidan bir bastakor siymosini to'liq o'rganish ishlari ham olib borilgan xususan, Ilyos Akbarovning "To'xtasin Jalilov" (T.:1978), Ravshan Yunusovning "Faxriddin Sodiqov"(T.:2005), "Fattohxon Hofiz" (T.:2022), Mahmud Ahmedov "Yunus Rajabiy" (T.:1978), "Doni Zokirov" (T.:1978), Ahmad Jabborovning "O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari" (T.:2004), Soibjon Begmatovning "Orifxon Hotamov" (T.:2000), Soibjon Begmatov va Aziz Zokirovning "Muxtorjon Murtazoyev" (T.:2006), Zamira Suyunova "G'anijon Toshmatov" (T.:2009), Sultonali Mannopov va Nabijon Soliyevning "Jo'raxon Sultonov: Ko'kardi chaman guluzorim qani?" (T.:2019) kabi monografiyalari mavjud.

Kitoblardan tashqari bastakorlik ijodiga bag'ishlangan yana bir qancha

⁷ G'ofurbekov T.B. Bastakorlik ijodiyoti tarixidan. // Saylanma T., 2009, 6-bet.

ilmiy maqolalar nashr ettirilgan jumladan Oqilxon Ibrohimov, Fayzulla Karomatli, Ravshan Yunusov. Bastakorlik ijodiyoti. // O'zbekiston san'ati (1991-2001 yillar), To'xtasin G'ofurbekov "Maqomlar-bastakorlik ijodiyoti tarkibi(tizimi)da" (1999); "Polimonodiya – o'zbek bastakorlari mahsuli" kabi maqolalari, shuningdek "Musika ijodiyoti masalalari I" (T.:1997), "San'atshunoslik masalalari" (T.:2006), "Shashmaqom Saboqlari" (T.:2007), "Rajabiynoma" (T.:2016), "Yilnoma" (T.:2022), "Maqom ijodiyoti masalalari" (T.:2024), "Yosh maqomshunoslar minbari" (T.:2024), maqolalar to'plami hamda Maqom ilmiy uslubiy jurnarlining bir nechta sonlarida ham bastakorlar ijodiga bag'ishlagan maqolalar bayon etilgan.

Xulosa o'rnida aytish joizki, bastakorlik ijodi o'zbek musiqasining yorqin namunasidir. Ushbu san'at yillar, asrlar o'tgani sayin sayqallanib, rivojlanadi bu esa xar bir davr bastakorlik ijodi alohida bir olam ekanini anglatgani bois, uni o'rganish hamisha dolzarb masala sifatida alohida o'rganish, izlanishlarni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.1 Ergasheva. Ch. O'zbek an'anaviy musiqasida nazira an'analari. – Toshkent : Musika, 2022.
- 1.2 Fitrat . O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. - Toshkent: Fan, 1993.
- 1.3 G'ofurbekov.T. Bastakorlik ijodiyoti tarixi, tahlili, taqdiri.- Toshkent : Muharrir, 2019.
- 1.4 G'ofurbekov.T. Saylanma. – Toshkent : Musika, 2009.
- 1.5 Akbarov.I. Musika lug'ati. - Toshkent: O'qituvchi, 1997.
- 1.6 Begmatov.S. Xofizlik san'ati.- Toshkent: Musika, 2007.
- 1.7 Begmatov. S. Bastakorlik ijodi.- Toshkent : Niso Poligraf, 2017.